



THE NEED TO COMPILE AN UZBEK–ENGLISH DICTIONARY OF PHYSICAL GEOGRAPHY

Bakhtiyor Yakubovich Zikirov

Teacher

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzakh, Uzbekistan

Jamshid Abdumajidov

Student

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzakh, Uzbekistan

Mahliyo Khatamova

Student

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: physical geography, terminology, dictionary compilation, scientific translation, geographical terms, lexicography.

Received: 05.04.26

Accepted: 06.04.26

Published: 07.04.26

Abstract: This article highlights the theoretical foundations for compiling an Uzbek–English dictionary in the field of physical geography, the criteria for selecting terms, the principles of translation, and the methodological stages of dictionary compilation. It also analyzes issues such as interdisciplinary integration, scientific accuracy, and compliance with international terminology in the process of dictionary development.

TABIY GEOGRAFIYA FANIDAN O‘ZBEKCHA–INGLIZCHA LUG‘AT TUZISH ZARURATI

Baxtiyor Yakubovich Zikirov

JDPU o‘qituvchisi

Jizzax, Uzbekistan

Jamshid Abdumajidov

JDPU talabasi

Jizzax, Uzbekistan

Mahliyo Xatamova

JDPU talabasi
Jizzax, Uzbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: tabiiy geografiya, terminologiya, lugʻat tuzish, ilmiy tarjima, geografik atamalar, leksikografiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy geografiya fanidan oʻzbekcha–inglizcha lugʻat tuzishning nazariy asoslari, termin tanlash mezonlari, tarjima tamoyillari hamda lugʻat tuzishning metodik bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, lugʻat tuzishda fanlararo integratsiya, ilmiy aniqlik va xalqaro terminologiyaga moslik masalalari tahlil qilingan.

НЕОБХОДИМОСТЬ СОСТАВЛЕНИЯ УЗБЕКСКО-АНГЛИЙСКОГО СЛОВАРЯ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ ГЕОГРАФИИ

Бахтиёр Якубович Зикиров

Преподаватель

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Джамиид Абдумаджидов

Студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Махлиё Хатамова

Студентка

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: физическая география, терминология, составление словаря, научный перевод, географические термины, лексикография.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретические основы составления узбекско-английского словаря по физической географии, критерии отбора терминов, принципы перевода, а также методические этапы составления словаря. Также анализируются вопросы междисциплинарной интеграции, научной точности и соответствия международной терминологии при разработке словаря.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ilmiy terminlarning xalqaro miqyosda bir xilligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tabiiy geografiya — Yerning tabiiy komponentlari, jumladan relyef, iqlim, gidrosfera, biosfera va litosferani oʻrganuvchi fan boʻlib, ingliz tilida Physical Geography deb yuritiladi.

O‘zbek ta’lim tizimida geografiya fanini xalqaro manbalar bilan uyg‘unlashtirish uchun sifatli o‘zbekcha–inglizcha terminologik lug‘at yaratish dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganish faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar so‘nggi o‘n yillikda ayniqsa kuchaydi. Albatta bu islohotlar o‘z samarasini bermoqda. Avvalo bu faoliyatning huquqiy asoslari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2909-sonli qarori bilan oliy ta’limda xorijiy tillarni bilish talabi kuchaytirildi hamda xorijiy tillarda dars berish kengaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlarini tatbiq qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 395-sonli qarori asosida 2020-2021 o‘quv yilidan abituriyentlar chet tilidan kamida B2 darajadagi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo‘lsa shu fandan test topshirmasligi hamda maksimal ball bilan baholanishi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli farmoni bilan talabalarni xorijiy til bilish darajasini oshirish va xalqaro reytinglarga kirish uchun til muhim omil sifatida belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi Ta’lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-4884-sonli farmoni bilan xorijiy til o‘qituvchilarini rag‘batlantirish, til sertifikatiga ega bo‘lgan ustozlarga ustamalar berish joriy etildi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-5117-sonli qarori bilan davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mazkur qaror asosida til bilish sertifikatiga ega bo‘lgan ustozlarga 50 % gacha ustama belgilandi va har bir tumanda til markazlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 iyundagi Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-289-sonli qarorining asosiy maqsadi esa xalqaro standartlarga mos ta’lim joriy qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-231-sonli qarorida pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 28 apreldagi Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-73-sonli farmonida ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini xususan, Buyuk Britaniyaning "Cambridge University Press and Assessment" tashkiloti bilan hamkorlikda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish belgilangan.

Xorijiy tillarni bilish, uni o'rganish davlat siyosati darajasida ekan barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari axborot resurs markazlari yoki kutubxonalarida xorijiy tillardagi adabiyotlar ulushi ortib bormoqda. Bu holat professor-o'qituvchilar hamda talabalar o'rtasida o'z mutaxassisliklaridan asosiy tushuncha va atamalarni xorijiy tillarda bilishni talab etadi. Biz quyida tabiiy geografiya fanidan muhim tushuncha va atamalar (terminlar) ingliz tilida qanday ifodalanishi yoki tabiiy geografiya fanidan o'zbekcha–inglizcha lug'at zarurati va uni tuzish haqida fikr yuritimiz.

Tabiiy geografiya fanida asosiy terminlar quyidagi xususiyatlarga ega:

Ilmiy aniqlik – termin bir ma'noli bo'lishi kerak (masalan, "eroziya" – erosion).

Xalqaro standartga moslik – terminlar xalqaro ilmiy adabiyotlarda qo'llanadigan shaklda berilishi lozim.

Fanlararo bog'liqlik – geologiya, meteorologiya, ekologiya va boshqa yer haqidagi fanlar bilan integratsiya e'tibor markazimizda bo'lishi lozim. Masalan: Iqlimshunoslik (Climatology), Geomorfologiya (Geomorphology), Hidrologiya (Hydrology) fanlari aslida tabiiy geografiya fanining tarmoq fanlari hisoblanadi.

Lug'at tuzishning metodik bosqichlari, terminlarni tanlash bosqichi va tarjima tamoyillaridan iborat. Terminlarni tanlash bosqichida malaka talablari tahlili, darslik va o'quv qo'llanmalarni o'rganish, xalqaro ilmiy manbalarni tahlil qilish ishlari amalga oshiriladi.

Tarjima tamoyillari bosqichida esa quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

| № | Tamoyil | Tavsifi |
|----------|----------------------------|--|
| 1 | Muqobillik (ekvivalentlik) | Termin mazmun jihatdan to'liq mos bo'lishi |
| 2 | Qisqalik | Ortiqcha izohlarsiz aniq berish |
| 3 | Ilmiylik | Umume'tirof etilgan akademik terminlardan foydalanish. |
| 4 | Moslashuvchanlik | Zarur hollarda transliteratsiya (harfma harf boshqa alifboga o'tkazish) qilish |

Masalan, Atmosfera – Atmosphere, Litosfera – Lithosphere, Biosfera – Biosphere, Tektonik harakat – Tectonic movement, Materik – Continent kabi.

Tabiiy geografiya fanidan o'zbekcha–inglizcha lug'at quyidagi shaklda tuzilishi maqsadga muvofiq bo'lardi:

Alifbo tartibida joylashtirish

Termin + tarjima + qisqa izoh (ixtiyoriy)

Sohalar bo'yicha guruhlash (iqlim, relyef, suv resurslari).

| № | O'zbekcha termin | Inglizcha muqobili (ekvivalenti) |
|---|------------------|----------------------------------|
| 1 | Antisiklon | Anticyclone |
| 2 | Botiq | Depression |
| 3 | Daryo havzasi | River basin |
| 4 | Eroziya | Erosion |
| 5 | Muzlik | Glacier |
| 6 | Qirg'oq | Coast |
| 7 | Cho'l | Desert |
| 8 | Tog' tizmasi | Mountain range |

Tabiiy geografiya fanidan o'zbekcha–inglizcha lug'at tuzishda bir qancha muammolar mavjud. Avvalo terminlarning turlicha tarjima qilinishi, ikkinchidan eski sovet davri terminologiyasi ta'siri va nihoyat ingliz tilidagi sinonimlarning ko'pligi shular jumlasidandir.

Mazkur muammolarnig yechimi sifatida xalqaro ilmiy adabiyotlarga tayanish, mutaxassislar guruhi bilan maslahatlashuv hamda elektron lug'at shaklini yaratish kabilarni tavsiya etish mumkin.

Tabiiy geografiya fanidan o'zbekcha–inglizcha lug'at talabalarning ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlar va maqolalar o'qish ko'nikmasini oshiradi. Shuningdek, xalqaro grant va loyihalarda ishtirok etish imkonini kengaytiradi hamda CLIL (Content and Language Integrated Learning) (fan va chet tilini bir vaqtda o'qitish metodikasi) metodikasini qo'llashga yordam beradi.

Quyida alifbo tartibidagi o'zbekcha–inglizcha lug'at namunasi berilgan.

| O'zbekcha | Inglizcha | Izoh |
|-------------------|--------------------|--------------------------|
| A | | |
| Atmosfera | Atmosphere | |
| Antisiklon | Anticyclone | |
| B | | |
| Biosfera | Biosphere | |
| Botqoq | Swamp | |
| D | | |
| Delta | Delta | Daryoning quyilish qismi |
| Daryo | River | |
| E | | |
| Ekvator | Equator | |
| Eroziya | Erosion | |

| F | | |
|---------------------|------------------------|-----------------------------------|
| Fyord | Fjord | Relyef shakli |
| Fosforit | Phosphorite | Mineral |
| G | | |
| Geografiya | Geography | |
| Gidrosfera | Hydrosphere | |
| H | | |
| Havo massasi | Air mass | Bir xil xususiyatli havo |
| Havza | Basin | Daryo suv yig'adigan hudud |
| I | | |
| Iqlim | Climate | Ko'p yillik ob-havo rejimi |
| Izobara | Isobar | Teng bosimni ko'rsatuvchi chiziq |
| J | | |
| Jar | Ravine | Eroziyon relyef shakli |
| Jilg'a | Stream | Kichik oqar suv |
| K | | |
| Ko'l | Lake | |
| Krater | Crater | Vulqon og'zi |
| L | | |
| Litosfera | Lithosphere | Yerning tosh qobig'i |
| Laguna | Lagoon | Dengizdan ajralgan sayoz qo'ltiq |
| M | | |
| Materik | Mainland | Quruqlikning yirik massivi |
| Musson | Monsoon | Mavsumiy shamol |
| N | | |
| Namlik | Humidity | |
| Nisbiy balandlik | Relative height | |
| O | | |
| Orol | Island | Kichik quruqlik |
| Ob-havo | Weather | Muayyan vaqtdagi atmosfera holati |
| P | | |
| Plato | Plateau | Baland tekislik |
| Passat | Trade wind | Doimiy esuvchi shamol |
| Q | | |
| Qit'a | Continent | |
| Qirg'oq | Coast | |
| R | | |
| Relyef | Relief | |
| Resurs | Resource | |
| S | | |
| Sahro | Desert | |
| Siklon | Cyclone | Past bosimli havo girdobi |
| T | | |
| Tog' | Mountain | |
| Tekislik | Plain | |
| U | | |
| Ural | Ural | Tog', daryo, vodiy |
| Ustyurt | Ustyurt | Plato |

| V | | |
|-------------------|-------------------------|--|
| Vulqon | Volcano | |
| Vodiy | Valley | |
| X | | |
| Xarita | Map | |
| Xaltalilar | Marsupial | |
| Y | | |
| Yarimorol | Peninsula | |
| Yassi tog'lik | Plateau highland | |
| Z | | |
| Zilzila | Earthquake | |
| Zona | Zone | |
| O' | | |
| O'simlik | Plant | |
| O'zan | Riverbed | |
| G' | | |
| G'or | Cave | |
| G'izol | Gazelle | |
| Sh | | |
| Shamol | Wind | |
| Shudring | Dew | |
| Ch | | |
| Cho'l | Desert | |
| Cho'kindi jins | Sedimentary rock | |

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andrew S. Goudie Dictionary of Physical Geography, Oxford University Press, 2000
2. Audrey Clark Penguin Dictionary of Geography, Penguin Books, 1988
3. G'ulomov P.N. Geografiyadan qisqacha ruscha-o'zbekcha terminlar va tushunchalar lug'ati, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2013
4. John Mayhew Oxford Dictionary of Geography Oxford, University Press, 2023
5. Vladimir Kotlyakov, Anna Komarova Elsevier's Dictionary of Geography in English, Russian, French, Spanish and German, eBook ISBN: 9780080488783, 2006
6. Michael Allaby National Geographic Visual Dictionary of Earth, 2008
7. Спиридонова А.И., составитель И.С.Щукин «Четырехязычный энциклопедический словарь терминов по физической географии, русско-англо-немецко-французский» «Советская энциклопедия», Москва, 1980
8. Ҳасанов Ҳ. "География терминлари луғати". – Т.: Фан. 1964 й.